



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI O‘STIRISH USLUBIYATI

Karimova Shahnoza Hamro qizi, Aitboyeva Shirin Umid qizi, Bozorboyeva Mavluda Qudrat qizi - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti III bosqich talabasi

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minalash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Kalit so‘zlar: nutq, nutq madaniyati, og‘zaki nutq, yozma nutq, pedagogik qobiliyat, ta’lim samaradorligi.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit bo‘lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to‘g‘risida va insонning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning samarali ta’lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta’limning pedagogik asosi sanaladi. O‘quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo‘lishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, me’yorlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi.

Bu esa o‘quvchida atrof-olam ob’ektlari va ular haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish; ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliyintellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo‘lib hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Mazkur yoshdagagi bolalarning ijodiy faoliyatları bir-biridan farq qilar ekan, ularning iste’dodi





ham turlicha namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mayl va intilishlari bilish va ijodiy faoliyatları, iste’dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘sadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, atrof-olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish va to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Lekin ko‘p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko‘pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qildilar. Dunyo ta’lim tizimi insonni kamolotga etkizishda, unga berilayotgan ta’lim mazmunini o‘quvchi hayotida foydalana olish darajalari nuqtai nazaridan takomillashtirmoqda. Davlatning taraqqiyoti uning yoshlariga berilayotgan ta’lim sifati, o‘quvchilarining egallagan ko‘nikma va malakalariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro talablari orasida o‘qish savodxonligi, matnni tushunish ko‘nikmasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, xalqaro baholash tadqiqotlari o‘quvchida hayotiy ko‘nikmalarning shakllanganlik darajalarini turli aspektlarda tekshirib ko‘radi. Jumladan, o‘quvchilarning o‘qish, yozish, gapirish savodxonligi ham. Ma’lumki, o‘qish savodxonligi matn ustida ishlashni taqozo qiladi. Jahon tajribasida matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari ko‘pincha o‘quv lug‘atlariga bog‘lanadi.

Nutq - tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka aylangan fikrdir. Nutq nutq a’zolarining harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Nutq ikki xil bo‘ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Nutq kishi ongida ham hosil bo‘lishi mumkin. Bu ichki nutqdir. Kishilarning og‘iz ochmasdan fikrashi, munozara yuritishi, o‘ylashi ichki nutqqa misol bo‘ladi. O‘pkadan kelgan havoning nutq a’zolariga ta’siri, shu ta’sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir. Nutq harakatdagi tildir. Nutq tilga tegishli narsalarni ma’lum bo‘lagida birbiriga qo‘sadi, harakatga keltiradi. Nutq so‘z shakllari, erkin birikmalari, so‘z tarkibi va gaplardan tashkil topadi. Nutq jarayoni tugab, fikr tinglovchiga etib borgach, nutq ham tugaydi. O‘qituvchi nutqiy faoliyati ikki ko‘rinishda bo‘lib, og‘zaki va yozma. Bular so‘zlash, mutolaa, eshitish va so‘zlash, deyilganda so‘zlovchining ma’lumoti, maslahat berishi, buyurishi, o‘ziga noma’lum narsalar haqida so‘rashi anglashiladi. So‘zlaganda so‘zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi.

Inson hayotida nutq va tafakkurning o‘rni va roli hamda mustaqil fikrlesh madaniyati va u bilan bog‘liq bilish jarayonini faollashtirish muammosi Kaykovus, Forobiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi buyuk



mutafakkirlar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Til ta’limida mustaqil ishlar, lug‘at ustida ishslash, nutq o‘sirish Y.Abdullayev, Q.Abdullayeva, K.Qosimova, M.Asqarova, T.Niyazmetova, S.Matchonov, R.Safarova, A.Hamroyev kabi pedagog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bolalarda og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri rivojlantrish uchun:

- a) nutq o‘sirishga doir tevarak-atrof ob’ektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish.
- b) bolalarning eslab qolishi va turli talaffuz etishi, so‘zlashganda tez-tez foydalanishi zarur bo‘lgan so‘zlarning taxminiy ro‘yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug‘atini boyitishda ularni tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, nutq o‘sirish bo‘yicha aniq, maqsadga qaratilmagan mashqlar bolalarning og‘zaki va yozma nutqini o‘sirishga ijobiy ta’sir ko‘rsata olmasligi mumkindir. Shu sababli bolalarning og‘zaki va yozma nutqi ravon bo‘lishi, ayniqsa to‘g‘ri shakllanishida bog‘cha tarbiyachisi, hamda ota-onalar mas’uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziyev E. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1994.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2004.
3. Zunnunov A. Didaktika. Toshkent, 2006.
4. D.R.Babaeva. Nutq o‘sirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2009.
5. Kosimova, G. (2020, June). THE POWER OF THE TRUE WORD. In Archive of Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 27-29).
6. Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. Oriental Journal of Social Sciences, 29-32.
7. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. Oriental Journal of Social Sciences, 33-37.
8. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙӢ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ, 2(1).
9. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICALCULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. Интернаука, (11-2), 50-51.
- 10.Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙӢ ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЮҚСАЛТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. Research Focus, 1(4), 351-354.